

## KO'NGILOCHAR MASKANLARNING AHAMIYATLI JIHATLARI

**Rahimov Azizbek Yaxshiboyevich**

*A.Qodiriy nomidagi JDPI, Tasviriy san'at va muxandislik grafikasi  
kafedrası o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston  
e-mail: rahimovazizbek09@gmail.com*

**Аннотасија.** Yurtimiz shaharsozligida bog' va park majmualari alohida o'ringa ega. Toshkent shahrida Z.M.Bobur, G'.G'ulom, Mirzo Ulug'bek, A.Qodiriy va Alisher Navoiy nomidagi madaniyat va istiroxat bog'lari axoliga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mustaqillik yillarida aholining ma'naviy dam olish ehtyojini qondirish maqsadida yangi "Disney lend", "Lokomotiv", "Olmaliq yoshlar bog'i", "Bog'i eram", "Bolajon" nomli istiroxat bog'lari tashkil etildi. Bundan tashqari mamlakatimizning ushbu soxadagi ish dasturida yaqin kelajakda 77 ta madaniy istiroxat bog'larini ochish rejalashtirilgan. Hozirgi paytda Madaniyat va sport ishlari vazirligi ixtiyorida 45 ta shu kabi maskanlar mavjud.

**Kalit so'zlar:** bog', park, istirohat, kafe, ijtimoiy binolar, o'yingohlar.

\*\*\*

**Аннотация.** Особое место в градостроительстве нашей страны занимают парки и парковые комплексы. В Ташкенте население обслуживают парки имени З.М.Бабур, Г.Гулама, Мирзо Улугбека, А.Кодир и Алишера Навои. За годы независимости для удовлетворения потребности населения в духовном отдыхе были созданы новые парки «Диснейленд», «Локомотив», «Алмалыкский молодежный парк», «Сад Эрама», «Болажон». Кроме того, программой работы в этом направлении страны предусмотрено открытие в ближайшее время 77 парков культуры. В настоящее время в Министерстве культуры и спорта имеется 45 подобных объектов.

**Ключевые слова:** сад, парк, отдых, кафе, общественные здания, стадионы.

\*\*\*

**Annotation.** Parks and park complexes have a special place in the urban planning of our country. In Tashkent, the parks named after Z.M.Babur, G.Gulam, Mirzo Ulugbek, A.Qodiriy and Alisher Navoi serve the population. During the years of independence, new parks "Disneyland", "Locomotive", "Almalyk Youth Park", "Garden of Eram", "Bolajon" were established to meet the needs of the population in spiritual recreation. In addition, the program of work in this area of the country plans to open 77 cultural parks in the near future. Currently, the Ministry of Culture and Sports has 45 similar facilities.

**Keywords:** garden, park, recreation, cafe, public buildings, stadiums.

Yurtimiz shaharsozligida bog' va park majmualari alohida o'ringa ega. Bugungi kunga kelib, bir qator istiroxat bog'lari qayta ta'mirlandi, ko'plab yangi turdagi zamonaviy ko'ngilochar maskanlar tashkil etildi. Ularning barchasi o'zining g'oyaviy maqsadiga ko'ra aholining dam olish va bayram kunlarini mazmunli o'tkazishga qaratilgan bir qator vazifalarni qamrab oladi. Toshkent shahrida Z.M.Bobur, G'.G'ulom, Mirzo Ulug'bek, A.Qodiriy va Alisher Navoiy

nomidagi madaniyat va istiroxat bog'lari aholiga xizmat qilmoqda. Shuningdek, mustaqillik yillarida aholining ma'naviy dam olish ehtiyojini qondirish maqsadida yangi "Disney land", "Lokomotiv", "Olmaliq yoshlar bog'i", "Bog'i eram", "Bolajon" nomli istiroxat bog'lari tashkil etildi. Bundan tashqari mamlakatimizning ushbu soxadagi ish dasturida yaqin kelajakda 77 ta madaniy istiroxat bog'larini ochish rejalashtirilgan. Xozirgi paytda Madaniyat va sport ishlari vazirligi ixtiyorida 45 ta shu kabi maskanlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2010 yil 29 dekabrda qabul qilingan "2011-2015 yillarda madaniyat va istiroxat bog'larining moddiy texnika bazasini mustahkamlash va ularning faolyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari dasturini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori asosida mazkur maskanlarni yanada rivojlantirish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Har bir istiroxat bog'ida turli atraksionlar, o'yingohlar, arg'imchoqlar bilan bir qatorda, zamonaviy ko'ngil ochar vositalar mavjud. Kundan-kunga ularning turlari ham oshib bormoqda. Biroq bu vositalarning aksariyat qismi aholining yosh o'smirlar qatlamiga mo'ljallangandir. Shu sababli xam istiroxat bog'lariga keluvchilarning 70 foizini o'smir yoshlar tashkil qiladi. Achinarli tomoni shundaki, o'quv darslari vaqti va kunlarida ham maktab hamda kollej o'quvchilari bu maskanga kelishadi. Ko'p xollarda bu bog'lar g'o'r yoshlarning xilvat uchrashuv joylariga aylanib qolmoqda. Bu muammoning bir tomonidir.

Istiroxat bog'laridagi yana bir muammoli vaziyat bu bog'larning me'moriy-badiiy yechimi. Bu maskanlar nafaqat turli atriaksionlar, arg'imchoqlar va kafelarga to'la bo'lishi, balki o'zining g'oyaviy-badiiy yechimi orqali bu yerga kelgan barcha kishilarning badiiy saviyasiga mos kelishi, uni o'stirishga qaratilishi lozim. Bunda bog'larni rang-barang gullar bilan boyitish, dekorativ daraxtlar, butalar bilan bezash alohida ahamyat kasb etadi. Zero, zamonaviy badiiy jarayonda landshaft dizayni tobora rivojlanib bormoqda va bu soha mutaxassislarini topish mushkul emas. Shuningdek, istirohat bog'laridagi har bir bino (kafe, ijtimoiy binolar, o'yingohlar) mazkur bog'ning g'oyaviy-badiiy yechimiga mos kelishi, o'zaro bir-birini to'ldirishi lozim. Bu jarayonda ma'muriyat yangi qurilish ashyolari, taraqqiy etgan muhandislik konstruksiyalari, yangi texnik yutuqlarni qo'llashga alohida e'tibor bilan qarashi bog'ning yanada nufuzi ortishiga xizmat qiladi.

Xiyobonlarning asosiy ko'rinishini manzarali daraxtlar, ko'kalamzorlashtirilgan dekorativ alleyalar tashkil qiladi. Bu esa aksaryat xollarda manzarali xiyobon deb ataladi. Manzarali xiyobon atamasini birinchilardan bo'lib, ingliz professori Repton (1752-1817) muomalaga kiritgan. Uning fikricha "Landshaftning tabiiy go'zalligini saqlab qolgan xolda, uning kamchiliklarini

berkitish lozim. Xiyobondagi unsurlarni rejalashtirishda manzaralar tabiiy yaratilgandek tasavvur xosil qilishi, barcha narsalar esa umumiy majmuaga bo'ysunishi kerak".

Anglyadagi Stou xiyoboni mazkur san'at turining eng ajoyib durdonalaridan biridir. Undagi dekorativ me'moriy loyihalar keyinchalik boshqa qurilmalari uchun namuna vazifasini o'taydi. Fransiyada romantik uslubdagi Ermenonvil xiyoboni, Monso bo'gi (1773-1778), Versaldagi Kichik Trianon xiyoboni (1774-1786), Germaniyadagi Verlits (1769-1817) va Muskau (1785-1871) bog'-parklari, Islandiyadagi modern uslubdagi o'ziga xos loyihada Guel saroyi bog'i (1900-1914) bu turdagi bog'-parklarga misol bo'la oladi.

Bu turdagi maskanlarga ko'proq bolalar va o'smir yoshlar kelishadi. Shu bois ularning badiiy didini o'stirishda bu maskanlar alohida o'rin tutadi. Zero, har bir oila umrida biror marta muzey, ko'rgazmalar zali yoki badiiy festivallarga bormagan bo'lishi mumkin, biroq kamida ikki bor istiroxat bog'lariga borgan. Shunday ekan, istiroxat bog'larining badiiy bezaklarida zamonaviy uslubdagi maxobatli rangtasvir va xaykaltarishlik namunalarining qo'llanilishi, shubxasiz, yoshlarning badiiy saviyasini o'stirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Toshkent shahri Sharq gavxari ekanligini unutmaslik, undagi istiroxat bog'lari milliy o'ziga xoslik tamoyillariga asoslangan yuksak badiiy yechimga ega bo'lishiga alohida e'tibor berish zarur.

Inson tabiat tugata olmagan narsalarni nihoyalashga intiladi: unga landshaftda yetishmayotgan detallarni kiritishga urinadi, uni o'ziga xos konstruktiv yechimga ega sun'iy xavzalar, ballyustradalar, ramziy buyumlar, haykallar, bog' favvorolari bilan to'ldiradi. So'lim gulzoru yashil maysazorlar, musiqali favvoralar bog'ning ko'rkiga ko'rk qo'shish barobarida, yozda xarorat mo'tadilligini ta'minlaydi. Eng asosiysi, tabiatdagi unsurlarni kichik me'moriy qurilmalar bilan o'zaro mutanosib uyg'unlashtira olish ko'zlangan maqsad tomon yetaklaydi.

Shahar aholisi soni o'sib borishi dam olish va ko'ngil ochish uchun ko'kalamzor maskanlarga ehtiyoj yanada orttiradi. Istiroxat bog'larining boshqa turdagi ma'naviy-madaniy maskanlar qatorida, shahrimizning o'ziga xos qiyofasini belgilab beradi. Ularning aholi dam olish madaniyatini namoyon etadi. Shu sababli, ko'ngilochar maskanlardagi ba'zi "ko'ngilsiz lavhalar" ni olib tashlash joiz. Shundagina bu maskanga tashrif buyurgan yurtdoshlarimiz va xorijlik mehmonlar madaniy xordiq chiqarib, badiiy ozuqa olish imkoniyatiga ega bo'ladi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev SH.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - T.: O'zbekistan, 1017. - 488 b.
2. Mirziyoev SH.M. Tanqidiy taxlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik

- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Toshkent. O'zbekiston, 2017.-1046.
3. Mirziyoev SH.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent. O'zbekiston. 2016. - 56 b.
  4. «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasining qonuni. // Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. SHarq, 1997. — 20-29 b.
  5. Bivalseva M.V. Illyustriruem skazki s radostyu. / “Nachalnaya shkola”. №1 2003. S. 59-62.
  6. Vilde T.N. Illyusgirirowanie narodnmx skazok na urokax tematicheskogo risovaniya / “Nachalnaya shkola”. №1 — 2003. S. 57 - 59.
  7. Golubeva I. Kniga i obraz. Formirovanie individualnogo xudojestvennogo yazja / jurnal “Iskusstvo v shkole”. 2009. № 3. S. 14 - 18.
  8. Ibragimov A., Sulaymonov A. Kitobat san'atiga oid terminlarning izohli-illyustrativ lugati. - Toshkent: “Fan”, 2007. - 80 b.
  9. Kamoliddin Behzod. Albom. Tuzuvchilar: E.Ismoshyuva, 3. Rahimova. - Toshkent: “San'at” nashriyoti, 2000. -40 b.
  10. Madraimov A. O'zbekiston miniatyura san'atini o'rganish muammolari / J. “San'at”. 2015,2-son. - 25 — 27-6.